

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA, O'QUVCHILARGA RANGTASVIR ASARLARINI BADIY IDROK ETISHGA O'RGATISH METODIKASI

Shermamatova Gulnoza

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Tasviriy san't va amaliy bezak
san'ati mutaxassisligi magistranti.

ANNOTATSIYA

Maqola tasviriy san'at darslarida san'at asarlarini badiiy tahlil qilishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish keltirilgan. Bunda O'zbekiston xalq rassomi Akmal Nur ijodi misolida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: rassom, asar, obraz, rang, an'ana, qadriyat, ezgulik va yovuzlik, talqin, ijod, falsafiy g'oya, ranglar gammasi, muhabbat, iymon, ramz, janr, yo'nalish.

Bugungi kunda respublika hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari talabalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyat, urf-odatlar, an'analar, milliy qadriyatlar va ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalari keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

“Bugun umumxalq harakatiga aylangan besh muhim tashabbusni amalga oshirishda yoshlarimiz faol ishtirok etayotgani bizni cheksiz quvontiradi.”¹

Darhaqiqat, birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarni oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Bu borada rassomlarimizning ijodi va ularning mo'yqalamiga mansub turli janr va yo'nalishdagi asarlari yoshlarning ma'naviy barkamol bo'lib yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at asarlari insonning ma'naviyatini boyitadi, dunyoqarashini, fikrlashini yanada rivojlantiradi. Bugungi kunga kelib bir qancha rassomlarimiz o'z ijodiy asarlari bilan bu soha rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqdalar.

¹Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik! – T.: TASVIR nashriyot uyi, 2021, -52 b.

Ulardan J.Umarbekov, B.Jalolov, A.Mirzayev, A.Nur, O.Qozoqov, N.Oripova, L.Ibrohimova, D.Mamedova, SH.Abdullayeva, A.Aliqulov, I.Haydarov va boshqa bir qancha rassomlarni keltirishimiz mumkin. Ular orasida Akmal Nurning ijodi o'zining falsafiy qarashlari, ranglari, ma'no va mazmuni jihatdan ajralib turadi.

Akmal Nuriddinov (Akmal Nur) 1959 yil Namanganda tugʻilgan. 1978 yil Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtida, 1984 yil Manon Uygʻur nomidagi teatr va rassomlik sanʼati institutida tahsil olgan. Ilk ustozlari Ibrohim Mamadaliyev (Namanganda anʼanaviy rang tasvirda ijo qilgan) va Sokolov Ivan Yakovlevichlardir. (Benkov nomidagi rassomlik bilim yurti oʻqituvchisi).

Akmal Nur ijodida ezgulik va yovuzlik, yorugʻlik va zulmat toʻqnashuvi, ezgulik va yorugʻlikning tantanasi, maʼnaviy qadriyatlar tarannum etiladi. Mustaqillik olib kelgan oʻzgarishlar, muhabbat, oilaviy, baxt-saodat, insof va diyonat oʻz aksini topdi. Rassom ijodi oʻta yorqin va hayotiy quvvatga ega. Biz asarlarni tomosha qilganimizda bu jihatlarni guvohi boʻlamiz. Asosiy motiv olma, anor, qayiq, oy tasviri ramziy qiyofa, metafora singari koʻp maʼnolarni oʻzida yashirgan. Oilaviy qadriyatlar, shirin tuygʻular aksi rangtasvir ustasining har bir ijodidan joy olgan. Oq rang rassomning sevimli rangi hisoblanadi.

Ijodkor ayniqsa “Rassom tarixni bilishi kerak” – deydi, Akmal Nur². Rassom adabiyotga oshufta. Oʻzbek va jahon adabiyotining yirik vakillari Alisher Navoiy, Bobur, Yesenin, Pushkin, Erkn Vohidov, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon va Zebo Mirzayeva ijodini kuzatib, mutolaa zavqini his etib boradi. Shuning uchun biz ijodkor asarlarini tomosha qilib, undagi ruhiyat tovushlarini eshitamiz, oʻrni kelganda tasavvur kuchi yordamida asar qahramonlariga aylana olamiz. Uning asarlarida falsafiy yechimni koʻrasiz, uning dunyosiga kirib borasiz. Yana bir maʼlumotni aytib oʻtsam, rassom ilgari Nur taxallusida ijod etmagan, qachonki Hindiston safariga borguncha qadar.

²Siddiqova Sh. Akmal Nur ijodida muhabbat mavzusi (magistrlik desirtatsiyasi). – T.:K.Behzod nomidagi MRDI, 2019.

Tanqidchi ijodkorga murojaat qilib, nega sizning ismingiz sharq qoidalariga koʻra Akmal Nuriddin yoki Akmal Nur emas deydi, vaholanki ijodida yorqinlikni, nurni koʻrganini eʼtirof etadi. Akmal Nuriddinovni bu holat oʻyga toldirgani tabiiy, ruhiy kechinmalarini his qilishimiz uchun, biz rassomning oʻzi boʻlishimiz kerak nazarimda. 1999 yildan ushbu nom ijodkorning asosiy maqsadiga aylanadi.

Asarlari: "Hayot boshlanmoqda" uchligi, "Umid bulogʻi", "Ajdodlar nazari" (1987); "Kushan qishlogʻi", "Tong", "Kushan afsonasi" (1988); "Oila" (1990); "Darvish", "Shahar taqdiri", "Tun va kun", "Unutilgan qadriyatlar", "Shirin tush" (1992); "Tojmahal", "Muhabbat bogʻi" (1993); "Ishq olmasi", "Tun va kun. Zulmat va Ziyoy" (1995); "Jayxun", "Fikr parvozi" (1996); "Tavhid" (1997); "Rishton natyurmorti", "Ilhom pariyey" (1998); "Muhabbat vodiysi", "Armon" (2000); "Oy ustidagi pari" (2001); "Jannat uchligi", "Ona" (2003) nomli asarlari rassomga muvaffaqiyat va shuhrat olib keldi.

Rassomning ijodiy faoliyati yuksak baholanib, 1990 yilda O‘zbekiston badiiy akademiyasi a’zoliciga qabul qilindi. 2005 yili O‘zbekiston xalq rassomi oliy e’tirofiga sazavor bo‘ldi. 2012 yildan O‘zbekiston badiiy akademiyasi raisi lavozimiga tayinlandi, hozirgi kungacha ushbu akademiyani boshqarib kelmoqda. 2019 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. 1987-yildan Respublika va xalqaro ko‘rgazmalarda asarlari bilan ishtirok etadi. Asarlari respublika va xorijiy mamlakatlar (AQSH, Hindiston, Shveysariya va boshqalar) muzeylari va xususiy to‘plamlarda saqlanadi.




Oliy ta’lim universitetlarida tasviriy san’at darslarida san’at asarlarini badiiy idrok etishni chuqurroq o‘rgatilishi lozim. Chunki har bir asar obrazida, syujetida ramziy ma’no, falsafiy g‘oya mujassamdir. Bularni bilmasdan asardan ma’naviy ozuqa olib bo‘lmaydi. Oliy ta’lim universitetlarida talabalarga rangtasvir asarlarini badiiy idrok etishni o‘rgatish milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, vatanga muhabbat, sadoqat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada Akmal Nurning ijodi muhim ahamiyatga egadir. Uning asarlarini ziyrak nigohlar bilan kuzatib, kuchli falsafiy qarashlar, qalb torlarini chertgan, his-tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan milliylikimizni tarannum etganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Quyida rassomning asarlaridan biri “Xorazmiyka” asarini “Blits-savol-blits javob” metodidan foydalangan holda asarni falsafiy va psixologik tahlil qilamiz.








“Xorazmiyka”

Rassom	Akmal Nur
Tur	Rangtasvir
Janr	Portret
Yil	2021 yil
Material	Xolst, moybo‘yoq
Hajmi	90x100

Akmal Nurning “Xorazmiyka” asarini falsafiy va psixologik tahlili.
(Blits so‘rov-javob usuli)

№	Qismlari	Qismlarning izohi
1.	 Qiz	Qiz-nafosatlik, go‘zallik beg‘ubor yoshlik ramzi. Nimadandir intizor, shirin, pokiza, o‘ychan nigohlar. Timqora sochlari balog‘at ostonasidagi yoshlikning go‘zal damlaridan darak. Yerga qarab turishi o‘zbekona hayo, iffati.
2.	 Kamon qosh, shahlo ko‘z	Kamon qoshlari, shahlo ko‘zlari-shirin o‘ylar, muhabbat, soflik, beg‘uborlik, soddadillikdan nishona.
3.	 Tillarang do‘ppi	Boshidagi tillarang do‘ppisi-podshohlar avlodidan, malikalik, kiborllik, mag‘rurlik, milliylik ramzi.

4.	 <p>Zebigardon, qizil kiyimi</p>	<p>Zebigardon-milliylik, go‘zallik, qadimiy qadriyatlar. Qizil kiyimi-yetuklik, g‘alaba, shodlik, iliqlik yoshlikning jo‘shqin damlari ramzi sifatida keladi.</p>
5.	 <p>Olma</p>	<p>Qizning qo‘lidagi qizil olma-olovli muhabbat ramzi.</p>
6.	 <p>Aylana naqsh</p>	<p>Aylana naqsh-qizning olami baxtdan, mukammallikdan, insonlarni yovuzlikdan qaytarishdan, tinchlik tarafdoridan iborat ekanini bildiradi. jingalak naqsh-to‘kin-sochinlik, moddiy boylikda umr kechirishini anglatadi.</p>
7.	 <p>Ranglar</p>	<p>Moviy rang-osmon, koinot, tinchlik yomon ko‘zdan asrash ramzi. Qizil-g‘alaba, olov, iliqlik, xursandchilik, shodlik, qon ramzi. Sariq-muqaddaslik, yorug‘lik, quyosh, kenglik ramzi.</p>

8.	 <p>Xulosa</p>	<p>Xulosa.</p> <p>Rassom ushbu asari orqali o‘zbek qizining milliy qiyofasini, o‘ylari, orzularini ochib bergan. Milliyligimiz timsolini do‘ppi, taqinchoqlarda aks ettirgan. Ayol obrazi – azaldan mehr-muhabbat, sadoqat, vafo, iroda, matonat, sabr, shijoat, hayotning davomchisi sifatida tasvirlanadi. Asarning asosiy g‘oyasi balog‘at yoshidagi o‘zbek qizi timsolidir.</p>
----	---	--

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik! – T.: TASVIR nashriyot uyi, 2021, -52 b.
2. Bulatov S.S, Soipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. -T.: Fan va texnologiya, 2016, -260 b.
3. Xolmatova F Akmal Nurning ijodida “Yaxshi kun” asarining falsafiy va psixologik tahlili. – 2022.
4. Wikipedia.